

O'ZBEK SHE'RIYATIDA INVERSIYA HODISASI

Abdurayimova Yorqinoy,
Qo'qon DPI talabasi, Uzbekistan

Ilmiy rahbar: M.Rahimova,
PhD, Qo'qon DPI, Uzbekistan

Abstract

In poetry, the order of clauses varies with the requirement of rhyme and weight. The importance of the phenomenon of inversion in poetry is shown in this article on the example of Abdulla Oripov's poems.

Keywords: inversion, sentence fragments, poem, rhyme, effect, weight

Inversiya deb gap bo'laklarining o'rin almashinishiga aytiladi. Adabiyotda bu holat, asosan, qofiya talabi bilan ham yuzaga keladi. Ega va kesimning o'rin almashinishi natijasida darak gap his-hayajon gapga aylanadi. Shoir yoki yozuvchi qahramon kechinmasini yuzaga chiqarish uchun ham o'zgargan tartibdan foydalanadi.

She'riyat bu insonning o'z-o'zi bilan ilohiy suhbat. She'r inson qalbida tug'ilgan tuyg'ularni ifoda qiladi va ta'sir darajasiga qarab o'quvchi qalbini zabt etadi. She'riyat bu yurak sadosi. Shoir o'zi yonmasa, boshqalarni yondira olmaydi. Shuning uchun bir she'rni o'qib xursand bo'lsak, birini o'qib yig'laymiz.

Dunyo ishlariga boqma hech hayron,

Jimgina quloq sol ko'hna bu korga.

Olis kechalari yolg'iz qolgan on,

Dilingni och faqat Parvardigorga. (Abdulla Oripov "Ibodati")

Mazkur parchada shoir fikrini aks ettirish uchun inversiyadan foydalanadi. Dunyo ishlariga boqma hech hayron - dunyo ishlariga hech hayron boqma (oddiy qolip), Jimgina quloq sol ko'hna bu korga - ko'hna bu korga jimgina quloq sol (oddiy qolip), Olis kechalari yolg'iz qolgan on (oddiy qolip), Dilingni och faqat Parvardigorga - dilingni faqat Parvardigorga och (oddiy qolip).

She'riyatda gap bo'laklarining almashinuvi o'zaro muvofiq bo'lgan hollarda kutilgan natijaga erishiladi. Qolipdagi tartibning o'zgarishi sintaksisdagi o'zgarish

hisoblanib ijobiy mazmun kasb etadi. Ega va kesim munosabatidagi o'zgacha yondashuv, kesimning gap oxirida emas, gapning boshida(o'rtasida) kelishi inversiyaning yorqin dalilidir. O'zbek tilida kesim har doim gapning oxirida keladi(mustasno holatdan tashqari). Bu qoidaning mustasno holati aynan inversiya hodisasidir. Garchi kesim gap oxirida kelmasa-da nazmga o'zgacha ko'rk bag'ishlaydi.

Olam oqqanida sovuqqa to'lib,

Yugurdim. Shavkatimdan qizidi badan.

Yugurdim yurakning jahdiga ko'nib,

Oyog'imga to'kdi maysalar shabnam. (Usmon Azim "Mangu umid")

Bundan tashqari ba'zi she'rlarda inversiya hodisasi kuzatilmaydi. Ularda gap bo'laklari o'rin almashmasligi ham mumkin.

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,

Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.

Ul yulduz uyalib, boshini bukib,

Aytadir: "Men uni tushda ko'raman.

Tushimda ko'raman - shunchalar hal,

Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal. (Cho'lpon)

Xulosa

Inversiya tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun gapning bir bo'lagini boshqa bo'laklardan g'ayriod-diy joyga qo'yish orqali namoyon bo'ladi. Gapning boshi, albatta, tinglovchining e'tiborini tortadi. Shuning uchun she'riyatda sintaksis qoidalari biroz chetlab o'tiladi. Gap bo'laklari o'z vazifasida keladi, faqat ularning tartibi o'zgaradi. Bu bilan qatordagi qaysidir so'z ko'proq urg'u oladi. Talaffuz jarayonida esa emotsiyani aks ettirishda, kulminatsiyani namoyon etishda inversiyaning o'rni beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. N. Xotamov, B. Sarimsoqov. 1979- yil. Toshkent. 123-bet.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Ikkinchi jild. "Haj daftari" turkum. 2001- yil. Toshkent. 197-bet.
3. Jadid adabiyoti namoyondalari. Abdulhamid Cho'lpon. 2022-yil. 16-bet.
4. Rahimova, M., & Nazirova, M. (2023). ERKIN VOHIDOV IJODIDA ANTONIMALAR. Conferencea, 85-88.
5. Rahimova, M. (2023). O'ZBEK TILIDA LEKSIK NOMEMALAR. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 164-164.
6. Raxmatullayeva, D. (2023). O'ZBEK TILIDAGI" ILM-MA'RIFAT" SEMALI LUG'AVIY BIRLIKLAR PARADIGMASI. Sciencewebacademicpaperscollection.
7. Shukhratovna, R. D., & Mushtariybonu, R. (2022). RESEARCH ISSUES OF LEXICAL UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE. GalaxyInternationalInterdisciplinaryResearchJournal, 10(12), 1847-1851.
8. Alimovna, U. S. (2023). TOPONOMY" KOKAND" AND ITS CONCEPTUAL STUDY. Open Access Repository, 9(3), 153-156.
9. Mahmudova, N. (2021). ЎЗБЕКТИЛИГИТЕЛЕФОНАЛОҚАТАРМОҒИТЕРМИНЛАРИНИНГДЕРИ ВАЦИОНХУСУСИЯТЛАРИ. Sciencewebacademicpaperscollection.
10. Jorayeva, R., & Ildırı, N. (2023). GIYSILERIN ADI BELIRLENEN SÖZCÜKLER. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(5), 29-37.